

O‘zbek va fransuz tillarida maqollar qofiyadoshlikning asosiy namunasi sifatida

Muqumov Toshqobil Bozor o‘g‘li
SamDChTI o‘qituvchisi

Ma'lumki, folklor asarlarida xalqning fikr-o'ylari, intilishlari o'z aksini topgan. Folklor durdonalari xalq hayotining uzoq yillik tajribalarining mahsuli hisoblanadi. Uning eng go'zal, qiziqarli janrlarini, ularning o'zaro munosabatlarini tahlil etish, har bir janrning o'ziga xos tomonlarini, obrazlar sistemasi va morfologiyasini o'rganish nafaqat folklorshunoslar, balki tilshunoslar oldida turgan muhim masalalardan biridir. Frazeologik birlik ana shunday masalalardan biri hisoblanadi. Frazemalarning asosiy xususiyatlaridan biri badiiy jihatdan mukammallik hisoblanadi. Frazeologik birliklarda o'xshatish, ohangdoshlik, sifatlash, istiora, majoz, qofiya kabi badiiy san'atlar keng qo'llaniladi. Ushbu turg'un birikmalar mazmun jihatdan chuqur va ta'sirchan bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammallik xususiyatiga ega bo'lmog'i lozim. Frazeologizmlarda qo'llanilgan o'xshatishlar, ohangdoshlik, mubolag'alar va majoziy obrazlar kabi badiiy unsurlar uning betakrorligi va tengsizligining asosi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "*Bulbul chamanni sevar, odam vatanni*" – turg'un birikmasida istiora badiiy san'ati qo'llanilgan. Ushbu frazeologik birlikda odam bilan vatanning bulbul va chamanga o'xshatilishining o'zi o'ta go'zal o'xshatishning misolidir. Chunki inson hamma vaqt oliyzot, dunyoning mo'jizasi hisoblangan, vatan esa eng buyuk, inson kendik qoni to'kilgan muqaddas joydir. Vatan chamanga qiyoslanganki, dunyoda inson uchun vatan tuprog'idan ham tabarrukroq narsa yo'q. Hatto bir zamonlar insonlar olis safarlarga junab ketganlarida o'zlari bilan vatan tuprog'ini olib ketishgan. Yoki fransuz tilidagi "*Vouloir c'est pouvoir*" (*xohlamoq – bu qila olmoq*) maqolida [v], [ou], [oi] tovushlari alliteratsiya – tovushdoshlik holatini yuzaga keltirgan. Biroq maqollarda o'xshatishning kam ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki o'xshatish badiiy sa'nati turg'un birikmalarning bu turi uchun xarakterli holat emas. Yoki, *Boy boyga boqar, suv soyga oqar* maqolini ko'rib chiqaylik. Bu qofiyadosh frazeologik birlikda *boyga* va *soyga* so'zlari o'zbek adabiyotshunosligidagi ichki qofiyani, *boqar* va *oqar* so'zlari tashqi qofiyani tashkil etadi. Eng xarakterli tomoni shuki, har ikkala qofiyadosh so'zlarda ham faqat bitta tovushda farq bor. Bu esa to'liq (*to'q*) qofiyani yuzaga keltirmoqda. Bu o'z navbatida maqolning badiiy

jihtadan mukammalligini ta‘minlashda muhim ro‘l o‘ynagan. Ayni chog‘da [b], [o], [e], [r], [s] kabi tovushlar vositasida ohangdoshlik holati vujudga keltirilgan. Bundan ko‘rish mumkinki har bir millatga tegishli xalq maqollari mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib so‘z san‘ati namunalaridir. Binobarin, hozirgi kunda lingvistlar oldida ushbu turdagi turg‘un birikmalarda qofiya masalasini tadbiiq etish muhim vazifalaridan biridir. Zero, maqollar o‘zoq davrlardan boshlab hozir ham yosh avlodni ajdodlar e‘tirof etgan barkamol inson darajasiga yetkazuvchi asosiy tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Hammaga ma‘lumki, bu kabi frazemalar inson miyasida tez esda qoladi va inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Maqollardan bolalar ham, katta yoshdagilar ham bir xil foydalanadi. Buning boisi shundaki, maqollar ritmik jihatdan uyushgan, ma‘lum zarbli bo‘lishi bilan birga, ularda ishlatilgan so‘zlar ko‘pincha ohangdoshlardir. Ya‘ni frazeologik birliklarda qofiyadoshlikning mavjudligidir. Masalan: *Oignez vilain, il vous poindra, Poignez vilain, il vous oindra (achchiqni achchiq kesadi)* maqoli 8+8 tarzda bo‘g‘inlar guruhi (turoqlar)ga bo‘lingani uchun bu jumlada ohang paydo bo‘ladi va maqolning eslab qolishini osonlashtiradi. Jumla boshida kelgan *oignez, poignez* so‘zlarida birinchi so‘zga bir harfning qo‘shilishi bilan yangi so‘z hosil qilingan. *Jeux de main, Jeux de vilain (qo‘lingga erk berma, u yaxshilikka olib bormaydi)* – frazemasida ham ritmik uyushganligi tufayli tezda esda saqlanib qoladi. *Yon qo‘shnim, jon qo‘shnim* – birligida bu jihatdan yanaham ustunlikka ega. Chunki unda ritmik ohangdorlikdan tashqari, ayrim so‘zlar orasidagi qofiyadoshlik ham mavjudki, bu xil so‘zlarning yodga olinishini keyin yana esga tushishini osonlashtiradi. Maqol tarkibidagi *yon* va *jon* so‘zlari bunga misol bo‘ladi. Shunday qilib, qofiyadosh frazeologik birliklar vositasi bilan o‘z fikrlarimizni ifoda etganimizda ular katta g‘oyaviy va estetik vazifani bajaradi. Qofiya faqat poeziyadagina emas, frazeologik birliklarda ham muttasil ishlatiladi. Xulosa qiladigan bo‘lsak qofiya oddiy nutqdan she‘riy nutqqa ya‘ni poeziyaga ko‘chgan hodisadir. Chunki maqollar poetik asarlardan avval yaratilgan. Bundan tashqari bu tur turg‘un birikmalarida bitta fikr ifoda etiladi, o‘z navbatida har bir she‘r esa ko‘pincha fikr va hislarning mujassamlashgan shaklidir. Frazeologik birliklarda qo‘llanilgan qofiyalar va jumlar bandlarning chegarasini belgilamaydi hamda jumla boshida yoki birinchi misrada boshlangan fikrni tugallaydi. Masalan, *Ayrimagin elingdan, Quvvat ketar belingdan* yoki *Il y a plus de fous acheteurs, Que de fous vendeurs (xaridor hamma vaqt haq)* Birliklardagi *el, bel* va *acheteurs, vendeurs* so‘zlarining qofiyalangani fikrni tugallaydi, unga ohangdorlik bag‘ishlab munosib shakl beradi.

Bu yerda V.Maekovski tomonidan qayd etilgan bir qonuniyat o'z kuchini ko'rsatadi: qofiya *“bizni avvalgi misraga qaytaradi, bir fikrni shaklantiruvchi hamma misralarni jipslanib turushiga majbur etmaydi”*¹ ya'ni qofiya ma'noga tobe, uni eng yaxshi ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Myakovskiy qofiyaga xos bo'lgan ma'no tashuvchilik vazifasini alohida uqtirib, shoirlar asosiy mazmuni ifodalovchi so'zlarni ataylab misralarning oxiriga qo'yib qofiyalashga intilishlarini ta'kidlab o'tgan edi. Dunyoning ko'pchilik xalqlari poeziyasida qofiya misralarning oxirida kelgani uchun she'rga asosiy fikrni ifoda etuvchi so'zlar misralarning oxirida qofiyalanib keladilar, ya'ni qofiya qat'iy suratda mazmunga bo'sundiriladi. Bunday xususiyat maqollarga ham xosdir. Masalan: *Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.* yoki fransuz tilidagi : *Mémoire et usage Rendent l'homme sage.* (bilim va tajriba insonni dono qiladi) Biroq qofiyalar turg'un birikmalarning boshida ham kelishi mumkin. Buni biz o'zbek tili frazeologik birliklari misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan: *Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'l.* yoki boshqa bir misol: *Til bilgan – el biladi* Qofiyadosh frazeologik birliklarda o'zak qofiyalar juda ko'p qo'llaniladi. Masalan: *Omon bo'lsang, osh yersan, Yomon yursang, tosh yersan.* yoki fransuz tilidagi : *Courroux est vain, Sans fort main.* (bilagingda kuch bo'lmasa chiranganing befoyda) *Suv keltirgan mard, suv bermagan nomard.*

Ma'lumki, o'zbek tilidagi bu kabi frazeologik birliklar bizga qadar yetib kelgan eng qadimiy xalq og'zaki namunalari. Biroq maqollarning poetik xususiyati, xususan, maqollarda qofiya qo'llanilishi masalasi hozirga qadar mukammal o'rganilgan emas. O'zbek tili klassik nazariyaga ko'ra qofiya negizini raviy tashkil qiladi. Raviylari mos bo'lmagan qofiyali misra hisoblanmaydi yoki aybli hisoblanadi. Qofiyadosh frazeologik birliklarning qofiyalarni tadqiq etishi shuni ko'rsatadiki, maqollardagi raviylar asosan o'zaro mos keladi, mos bo'lmagan o'rinlarda esa o'zaro ohangdosh bo'lgan tovushlardan foydalanilgan. Turg'un birikmalarning qofiyalarini tadqiq etish shuni ko'rsatmoqdaki, turkiy tillardagi poeziya qofiyasida raviyning o'zakda kelishi hammavaqt shart bo'lmagan. Shunga ko'ra, frazeologik birliklarning qofiyalaridagi raviyning affiksga ko'chgan holati qadimgi turkiy an'ananing kuchli ta'sirining natijasidir.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarda odatda ko'proq radifli qofiyalar uchraydi. I.V.Stebleva to'g'ri ta'kidlaganiday “Ilk turk yodgorliklarida bo'lganidek

¹ Маяковский В. Курс литературы соврменного русская языка. – М.: ВШ, 1986. – 336 с.

alliteratsiyani ishga solgan”.² *Erning yuragi – sherning yuragi* Bu yerda *e* va *sh* harflari almashinishi vositasida hosil bo’lgan *er* va *sher* so’zlari qofiyadosh bo’lib kelgan. Fransuz tilida ham alliteratsiya asosida vujudga kelgan qofiyadosh frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan :

Tout passe, Tout lasse, Tout casse.

Oy yorug’ligida hech narsa abadiy emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO,,YXATI

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 1998. - 238 б.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, Ma’naviyat nashriyoti, 2008-yil, - 176 b.
3. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
4. Бушуй А.М. Актуальные проблемы фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1998.–101 с.
5. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. - М.: ВШ, 1987. -288 с.

² Стеблева И.В. Философия, Учебные и методические пособия, Наука и образование. Наука, Ленинградское отделение, 1970. –С.283.